

## O'QUVCHIGA TA'LIM AMALIYOTIDAGI TALABCHANLIK ASOSLARI

Mirzayeva Muhayyo Ro'ziyevna

Bux Davlat Universiteti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6320873>

Bolani tarbiyalash, o'qitish emas, uni kattalar ko'magida o'zini o'zi tarbiyalaydigan, bilimlarni o'zi izlanib o'zlashtiradigan vaziyatga solish lozim. Istiqlol davri o'quvchisidan sinfdagi har bir o'quvchisi o'z-o'zini tarbiyalashi va bilimlarni o'zlashtirish yo'lida faol, tinimsiz ishlata olish, uni mustaqil fikr sohibi bo'lishini ta'minlash o'quvchi shaxsida o'z qarashlarini asoslay oladigan hamda himoya qila biladigan, o'rni kelganda g'oyalari uchun kurashishga qodir insonni shakllantirish talab qilinadi. Shu ma'noda, o'quvchi tomonidan puxta o'ylab berilgan uy vazifalari ham kattagina ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. O'quvchining ichki qiziqishlarini qondirish ko'zlab berilgan uy vazifalari uning darsda olgan bilimlari, shakllangan ko'nikma va malakalari, ma'naviy sifatlarini mustahkamlash, rivojlantirish, takomillashtirishga yordam beradi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'kidlanganidek, dastur hamda davlat ta'lim standartlari o'quvchilar faolligi va erkin fikrlashiniamalga oshiruvchi asosiy omillandandir.

Shunday ekan, har bir o'qituvchi, jumladan, yangi darsliklar mazmun- mohiyatini to'liq anglagan holda dars mashg'ulotlarini DTS talablaridan kelib chiqib tashkil etishi lozim. O'quvchining ta'lim olish va tarbiyalanish yo'lidagi mehnati, u ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar oson bo'lishi kerak emasligi, aksincha tarbiya bilim, ko'nikma to'plashga, mehnat qilish qobiliyatiga, erk va intizomga hamohang bo'lishi zarurligi taniqli pedagoglar tomonidan ko'p ta'kidlangan. Faqat o'sha qiyinchilikning nozik chegarasini aniqlab olish juda muhim, toki bu mehnat o'quvchining yosh xususiyatlariga mos kelishi, bilimlar o'zlashtiriluvchan bo'lishi, qolaversa unga huzur va zavq bag'ishlashi lozim. Mohir metodist Q.Husanboyeva ta'kidlaganidek, ta'lim amaliyotida o'quvchiga talabchanlik uni kamolot sari yetaklashning qat'iy mezonlari asosida bo'lishi kerak. Bilimlarning sifatini oshirishga asos bo'ladi. To'g'ri berilgan uy vazifalari o'sib kelayotgan avlodni bilim olish jarayonida imkon qadar mustaqil ishlashga, erkin faoliyatga, bilimni chuqurlashtirishga o'rgatadi.

Uy vazifalarini to'g'ri tashkil qilinganidagina o'quvchilarning ma'naviy shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, aks holda ular salbiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Uyga topshiriq berishdan avval har bir topshiriq o'quvchi uchun tushunarli va mustaqil ravishda bajarish imkoniyatlari doirasida bo'lishga harakat qilinishi lozim. Masalan, akademik litseyning 2-bosqichida “Alisher Navoiy hayoti va ijodi”, “Alisher Navoiy lirikasi”, “Xamsa” kabi mavzularni o'tib bo'lgach, o'quvchilar xotirasini charxlash maqsadida sinfdan tezkor savollar o'yinini tashkil etish mumkin.

1. Alisher Navoiy tavallud topgan yil(1441)
2. Alisher Navoiy tug'ilgan shahar(Hirot)
3. A.Navoiy otasining ismi(G'iyosiddin)
4. Yosh Alisherni hayajonga solgan asar(Mantiq ut-tayr)
5. Navoiyning do'sti (Husayn Boyqaro)
6. Navoiyga homiylik qilgan hukmdor(Abulqosim Bobur)
7. Navoiyni Samarqandga quvg'in qilgan hukmdor(Abusaid Mirzo)
8. Nizomiddin Mir Alishering taxalluslari(Navoiy,Foniy)

9. "Foniy" so'zining ma'nosi (o'tib ketuvchi, vaqtincha)
  10. Navoiyning ilk devoni qayerda tuzilgan? (Samarqand)
  11. Navoiy jannatga qiyoslagan shahar (Samarqand)
  12. Navoiyning birinchi devoni ("Badoye ul-bidoya")
  13. Navoiyning ikkinchi devoni ("Navodir un-nihoya")
  14. Umri davomida yozgan she'rlari kiritilgan devon („Xazoyin ul-maoniy“)
  15. Bu devonni qismlari.
    - a) 7-20. Bahor. ("G'aroyib us-sig'ar" - "Bolalik g'aroyibotlari")
    - b) 20-35 yosh. Yoz. ("Navodir ush-shabbob" - "Yigitlik nodirliklari")
    - d) 35-45 yosh. Kuz. ("Badoe' ul-vasat" - "O'rta yosh go'zalliklari")
    - e) 45-60 yosh. Qish. ("Favoyid ul-kibar" - "Keksalik foydalari")
  16. Besh dostonni o'z ichiga olgan asar ("Xamsa")
  17. "Mehnatnoma" nomi bilan atalgan doston ("Farhod va Shirin")
  18. Majnun haqiqiy ismi (Qays)
  19. Navoiy dostonidagi komil inson timsoli (Farhod)
  20. A. Navoiyning saxiylik haqida yozgan hikoyati ("Hotam Toy")
  21. A. Navoiyning halollik haqida yozgan hikoyati. ("No'shiraboni Odil")
  22. A. Navoiyning insof va adolat haqidagi hikoyati. ("Shoh G'oziy")
  23. A. Navoiy bilimdonlik va johillikni nimalarga qiyoslaydi? (A. Navoiy bilimli odamlarni oyga, johillarni ko'shapalakka qiyoslaydi)
  24. Toshkent milliy bog'idagi A. Navoiy haykali kimlar tomonidan yaratilgan? (Samarqandlik haykaltaroshlar Aynulla Aliyev, Nodar Bandziladze hamda Vasiliy Degtyarevlar)
- Mazkur tipdagi faol o'yindan so'ng, "Vatan Navoiy nigohida", "Go'zal Hirot tarixi va tavsifi Navoiy talqinida", "Navoiyning do'stlari", Navoiyga homiylik qilgan hukmdor Navoiy jannatga qiyoslagan shahar", "Yosh Alisherni hayajonga solgan asar", "Navoiy saxiylik haqida", "Toshkent milly bog'idagi Alisher Navoiy haykali", "Nizomiddin mir Alisherning taxalluslari", "Alisher Navoiy tavallud topgan uy", qiziqarli mavzular bo'yicha insho yozishni uyga topshiriq sifatida berish mumkin. Bunday uy tophiriqlari o'quvchini mustaqil ishlashga, erkin faoliyatga, bilimni chuqurlashtirishga o'rgatdi. O'quvchilarni uyda ko'proq kitob o'qishga qiziqtirish lozim. Navoiyning Vatan haqidagi mashhur baytlarini yozdirib, qaysi asaridan olinganligini aniqlab kelishni uyga vazifa sifatida berish mumkin. Masalan:

1. Xurosan badandir, Hiri jon anga,  
Hiri jon, badandir Xuroson anga.
2. Navoiy, aysh uchun dayr-u riyozat chekkali Ka'ba,  
Gar istarsan, bu ikki ishga yo'qtur yer Hiri yanglig',
3. Chu mazkur etib ahli donnish ham ot  
Pisand aylamay xotiri juz Hirot  
Chu bu lafzga iltifot aylabon,  
Hamul shahar otin Hirot aylabon

#### Foydalanilga adabiyotlar:

1. Egamova Sh. Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkey leksika tadqiqi. Toshkent O'zRFAI, 2007
2. A. Navoiy. Xazoyin ul-maoniy Asarlar. 15 tomlik Birinchi tom, Toshkent 1968 y.
3. A. Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois. 12-tom. Gafur G'ulom nashriyoti. 1966 y.

4. Мирзаева М. Р. Диалоговое обучение как одна из форм эффективных педагогических технологий в преподавание иностранных языков “Чет тилларини ўқитишнинг долзарб масалалари” мавзuidaги республика онлайн илмий-амалий конференция материаллари. 2021 йил. 17-18 март. Бухоро. 244-249 бет.
5. MIRZAYEVA M. R., MADATOVA M. DIALOGUE TRAINING AS ONE OF THE FORMS OF EFFECTIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES //E-Conference Globe. – 2021. – С. 244-249.
6. Mirzaeva Muhayyo Ruzievna , Samadova Sevar Axatovna  
Scientific and theoretical fundamentals of creating an informed educational environment  
International Journal on Integrated Education -2021
7. Baxronova Z., Samadova S., Mirzayeva M. SIGNIFICANCE OF INDIVIDUAL EDUCATION AND INDIVIDUAL APPROACH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. M.R.Mirzaeva UDC: 81.371: THE STUDY OF GERMAN LANGUAGE PHRASEOLOGICAL UNITS, SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY 2021/4 (86)